

3. Pardaev M.Kh., Mo'minova G.I., New Reflections on the Occupation of Jizzakh by the Mongols. Indonesian Journal of Innovation Studies, 2019. -P. 8. <https://doi.org/10.21070/ijins.v8i0.282>
4. Bartold V.V. Turkestan in the era of the Mongol invasion. Collected works. T.I. Moskva, 1963.

STILISTIK ILMIY PARADIGMANING SHAKLLANISH TARIXI.

Mahliyo Saydaliyeva.

Qo'qon davlat pedagogika instituti tadqiqotchi

Sezar2223@gmail.com

Annotatsiya: Stilistika dastlab tilshunoslik va adabiyotshunoslik chorrahasidagi soha sifatida shakllangan. Mazkur soha bugungi kunda o'zining qator tadqiqotlar doirasiga ega. Stilistikaning bugungi rivoji uning tarixini o'rganishga qiziqish uyg'otishi tabiiy. Mazkur maqola stilistik ilmiy paradigmaning shakllanish asoslarini tadqiq qiladi.

Kalit so'zlar: stilistika, ritorika, funksionalizm, strukturalizm, genesis, Ch.Balli, R.Yakobson.

Kirish. Qadimgi davrlardan beri olimlar o'rtasida aloqa vositasi bo'lgan til va undan foydalanishga bo'lgan qiziqish hozirgi kunga qadar davom etib ketmoqda. Til va undan foydalanish evaziga o'z fikrlarini ifodalash masalalari tilshunoslikning dolzarb muammolari sifatida e'tirof etiladi. Tilshunoslik, hususan, stilistika sohasining paydo bo'lishi til haqidagi ilmning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Muloqot jarayonida tafakkurda shakllangan g'oya va fikrlarni ifodalash uchun muayyan tilga xos jamoa ongidagi lisoniy zahiralar tanlangan. Ular nutq vaziyati va boshqa omillar hisobiga fikrlarni aniq va ravshan ifoda qilish vazifasini bajargan. Stilistika sohasining paydo bo'lishi fikr ifodasi uchun lisoniy vositalarni tanlash jarayoni bilan bog'liqdir. Nutqning ta'sirchan bo'lishi fikr ifodasi uchun xizmat qiladigan lisoniy vositalarni tanlanishi bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham ritorika sohasi mutaxassislari bu muammolarga asosiy e'tiborlarini qaratganlar. Yunon ritoriklari notiqlar nutqida qo'llangan ta'sirchan, ishontirish kuchiga ega bo'lgan lisoniy vositalarni o'rganishga qiziqish bildirishlari natijasida stilistika haqidagi dastlabki tushuncha va qarashlar paydo bo'la boshlagan.

Nazariy asos.

Fikrni lisoniy vositalar orqali ifodalash murakkab jarayon bo'lib, u muallifning stilistik imkoniyatlari yordamida amalga oshiriladi. Muallif bu jarayonda mantiqiy va grammatik tamoyillarga qat'iy rioya qiladi. Har bir fikr ifodasi uchun dastlab mantiqiy tamoyil ustuvorlik qiladi. Mantiq tizimiga qurilgan fikrlarning lisoniy moddiylashuvi uslubiy tanlovlar orqali amalga oshiriladi. Inson tafakkuridagi g'oya va fikrlarni aytish istagi boshlanganidayoq uslubiy tanlovlar bilan bog'liq kognitiv jarayonlar ishga tushadi. Matn yoki nutqni shakllanish jarayoni kognitiv mexanizmlarga bog'liq bo'lib, bu jarayonda fikrlar ifodasi uchun lisoniy vositalar tanlovi amalga oshiriladi. Bu haqida ilmiy adabiyotlarda quyidagi fikrlar bildiriladi. "Matn tabiiy nutq o'zining moddiylashish bosqichidayoq matnni yoki nutqni yaratish jarayonida ham uslubiy tanlovlar muhim o'rin tutadi, hatto bu jarayon beixtiyor amalga oshirilsa ham, chunki bu tanlovlar matnning tuzilishi va talqin qilinishiga katta ta'sir ko'rsatadi"[1]. Tabiiy nutq(spontan)ning moddiylashish bosqichi avvalidayoq lisoniy vositalar tanlovi amalga oshiriladi, har bir fikr va ma'no uchun so'z va ifoda shakllari tanlanadi. Muallif tomondan aytilishi zarur bo'lgan fikrlar uchun tanlangan so'z va ifoda shakli muallifning kommunikativ maqsadini aniq va ravshan ifoda qilishga xizmat qilishi kerak. Fikr so'zga mos bo'lishi barobarida so'z ham o'sha fikrni o'zida to'liq va mukammal ifodalay olishi zarur. Bu albatta, muallifning uslubiy tanlovlari orqali amalga oshiriladi.

Sh.Balli. XX asr boshlarida fransuz tilshunosligida stilistika sohasiga qiziqish yuqori darajada bo'lgan. Stilistika hatto lingvistikaning sohalari ichida dolzarb va muhim masala sifatida qaralgan. Shuning uchun ham universitetlarning barcha yo'nalishlarida alohida maxsus fan sifatida o'qitilgan. Odamlar o'z fikrlariga singdirish auditoriyani egallashi kerak bo'lgan,

stilistikani o'tgan,masdan bu ishlarni amalga oshirib bo'lmagan. ishontirish kuchiga ega bo'lish uchun stilistik tanlovlar ahamiyatini chuqur o'zlashtirib borgan. Tilshunoslikning stilistika faniga shu darajada e'tibor berganlarki, stilistikaga lingvistika fanining gultoji sifatida qaraganlar. yo'nalishiga fanning va universitetlarda fan sifatida ham o'tilgan. Fransuz tilshunosi Sharl Ballining "Fransuz tili stilistikasi haqida qo'llanma" [2] asarida stilistikani tilshunoslikning muhim sohalaridan biri sifatida e'tirof etadi. Bu kitob nashr qilingunga qadar ham Olim Jeneva universitetidagi o'qigan ma'ruzalarida ham stilistika haqida muntazam ma'ruzalar qilib boradi. Uning ma'ruzalari, nutqlari to'plam qilib chiqarilganini eslaydi. Asar muqaddimasida muallif: "Tilning ekspressiv tomonlarini faqat eksperimental tadqiqotlar orqali ochib berish mumkin. Biz bunga hali tayyor emasmiz, ammo bu asar shu tipdagi tadqiqotlarga yo'l ochadi, shunday tadqiqotlarni amalga oshirishga yordam beradi"[2], deb ta'kidlagan edi. Stilistika sohasining muallifi o'z ilmiy qarashlarini imkon qadar sodda tilda, barcha uchun tushunarli qilib yozgani ko'zga tashlanib turadi. Ayni paytda muallif bu asar orqali tillarni stilistik jihatdan o'rganishva tadqiqi etishda amaliy natija berishiga ishongan. "Stilistika - o'zaro bog'langan til birliklarining ta'sir qiymati, tilning ifoda vositalari tizimini shakllantirishga yordam beradigan ekspressiv birliklarning o'zaro ta'sirini o'rganadi"[2], - deb sohaga ta'rif bergan edi olim. Qolaversa, o'zidan avvalgi fransuz tilida yozilgan stilistikaga doir qo'llanmalar deya quyidagi asarlarni ham aytib o'tadi: A. Sechehaye "Stilistika va nazariy tilshunoslik", X. Xultenberg "Roman tillarida asos va affiksial morfemalar ma'nosini kuchaytirish qo'shimchalar va qo'shimchalarning ma'nosini kuchaytirish"[2]. Dunyo tilshunosligida stilistik a masalalariga bagishlangan tadqiqotlat SH.Balli dan ham avval mavjud bo'lganini dalillaydi.

Struktural va funksional maktab. Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha dunyo tilshunosligida stilistikaning fan sifatida shakllana boshlashi o'tgan asrning 20-30-yillariga to'g'ri keladi. tilshunoslikda rus formalizmi va praga maktabi vakillari qarashlar stilistika uchun asos bo'ldi. Tilshunoslikda stilistikaning tilshunoslik tarmog'i sifatida shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan ilmiy tadqiqotning o'ziga xos sohaları paydo bo'lgan edi. Bu sohalar tilshunoslikda rus formalizmi va praga maktabi strukturalizmi deb nomlanuvchi ikki o'zaro bog'liq tilshunoslik yo'nalishlari edi. Viktor Shklovskiy va Boris Tomashevskiy rus formalizmi ta'limotiga asoslangan harakatning asosiy vakillari hisoblanadi. struktural maktabda esa Yan Mukarovskiy va Vilgem Matesius edi. Ikkala harakatni tom ma'noda o'z tadqiqotlari orqali bog'lagan olimlardan biri Roman Yakobson bo'lim, tilshunos 1920-yilda Moskva doirasidan Praga guruhiga ko'chib o'tgan. Bu ikki maktabning ko'pgina markaziy g'oyalari zamonaviy stilistikada o'z aksini topdi va bu sohaları stilistikadagi ikkita eng mustahkam nazariy asos deyish mumkin. "Bu maktab vakillari tildagi she'riy funksiya tushunchasini diqqat markaziga qo'ydi" [1]. Stilistika lingvistik tarmoq sifatida butun jahon tilshunosligida 20-asr o'rtalarida e'tirof va e'tibor qozona boshladi. Bu davr stilistikasining rivojlanishini Roman Yakobson va Tzvetan Todorov kabi olimlar faoliyatiga taqash mumkin. Rus-amerikalik tilshunos R.Yakobson til va uslubni o'rganishga katta hissa qo'shgan. U adabiy va adabiy bo'lmagan matnlarni ajratish orqali stilistikaning asosi bo'lgan uslub masalalarini boshlab bergan. O'shandan beri stilistika rivojlanib, tilning uslub, adabiy effekt va nutq nuqtai nazaridan tahlil qilishga asosiy e'tiborni qaratadigan tilshunoslik sohasiga aylandi. Qolaversa, Roman Yakobson nafaqat taniqli tilshunos balki adabiyot nazariyotchisi ham edi. Olim she'riyatga alohida e'tibor berib, stilistikada adabiy asarlar tadqiqiga katta hissa qo'shgan. Uning stilistikaga oid asarlari she'riy tilning stilistik vositalarini tahlil qilish va qadrlashimizga ta'sir ko'rsatdi. U "Lingvistika va poetika" maqolasida tilning poetik funksiya to'g'risida so'z yuritadi va tilning poetik funksiyasi tushunchasini ilmiy hayotga olib chiqadi. "Poetika asosiy e'tiborni nima so'zni san'at darajasiga olib chiqadi? degan savolga javob berishga qaratadi. Shuningdek, huddi rassomchilik rasm tuzilishi haqidagi soha bo'lganidek, poetika gap qurilishi muammolar bilan shug'ullanadi. Gap qurilishi haqidagi umumiy bilimlar majmui lingvistika deb atalsa, poetika lingvistikaning bir qismi" deya sohaga izoh beradi [3].


R.Yakobsonning stilistika sohasiga bag'ishlangan eng asosiy g'oyalaridan biri "tilning poetik vazifasi" haqidagi qarashlari. She'riyatda til avvalo estetik ta'sir vositasi ekanligiga

e'tibor qaratadi. Poetik vazifa poetik asarning tovush, ritm, qurilish xususiyatlarini tadqiq orqali, asar estetikasini ochib beradi. Shu tariqa she'riyatda til o'ziga xos badiiy asarga aylanadi. Olim poetik funksiya nima degan savolni mohiyati og'zaki nutq bilan bog'lanadi. o'z oldiga qo'yarkan, verbal suhbatlarda ishtirok etadigan omillarni sistemaga solib ularning poetik funksiyadagi ekvivalentlarini aniqlaydi.

Poetik funksiya millat adibining asarida qo'llansa poetic so'z funksiyasi vujudga keladi.

1.1-rasm.

R.Yakobsonning nasriy asar va og'zaki nutqdan kutilgan funksiyani amalga oshiruvchi vositalarining ekvivalentlik grafigi[3]



Poetik asarlarda inson shaxsi emas, hissiyotlari birinchi qavatda turadi. Yozuvchilar o'z kechinmalarini she'r orqali tushuntirishga intilsa, ularni qay darajada idrok etish o'quvchi shaxsiyatiga bog'liq. Adabiy asar ortida turgan va anglash jarayoniga hissa qo'shuvchi unsurlardan eng muhimlari deya asar mavzusi, o'quvchining diqqatini tortish uchun bajariladigan murojaatlar hamda metatilni hisoblash mumkin. Asar o'quvchisining e'tiborini tortish uchun qo'llaniladigan ritorik so'roq gaplar, undalmalar, stilistik vositalar murojaat hisoblanadi. R.Yakobson fikricha metatilni til haqidagi til deydi. Olim metatilga misol tariqasida quyidagi so'roq gaplarni keltiradi:

1. *Sizni anglamadim, nimani nazarda tutdingiz? (I don't follow you what do you mean)*
2. - *The sophomore was plucked.*
- *But what is plucked?*
- *Plucked means the same as flunked.*
- *And flunked?*
- *To be flunked is to fail in an exam[3].*

R.Yakobsonning she'riy asarlar tili tadqiqiga estetik nuqtai nazardan yondashishi keying davr tilshunoslari, adabiyotshunoslari uchun tilning adabiyotda badiiy shakl sifatidagi rolini chuqurroq anglashiga hissa qo'shdi. Qolaversa, uning g'oyalari badiiy uslubning alohida stil sifatida o'rganishida poydevor bo'lib, keyingi davrlar she'riy an'analari, tilning adabiy tanqid hamda lingvistik tahlil kabi izlanish rivojiga ta'sir ko'rsatdi. Shu tariqa tilshunoslikda uslub atamasi paydo bo'ldi. Sohaning keying rivojida bu atama yanada kengayib, bugungi kunga qadar takomillashib kelmoqda.

Xulosa. Stilistikaning shakllanish asoslari qadimiy davrga borib taqaladi. Bu davrda ritorika ya'ni notiqlik san'atining rivoji stilistik bilimlarning shakllanishiga olib keldi. Ikki soha

birgalikda bir-birini to'ldirib bordi. XX asrga kelib fransuz tilshunosligida boshlangan stilistik tadqiqotlar, uning alohida lingvistik soha sifatida shakllanishiga olib keldi. Sh.Balli bu harakatning yetakchisi bo'ldi, dastlabgi nazariy bilimlarni ishlab chiqdi. Rus formalizmi, praga strukturalizmi oqimi namoyondalari esa bu bilimlarni yanada ravnaq topishiga hissa qo'shishdi. Bu borada R.Yakobson poetik va adabiy funksiyani o'zaro farqlashi uslub atamasining dastlabgi ildizi bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Simpson P. Stylistics: A Resource Book for Students. – United Kingdom: Routledge, 2004.
2. Bally C. Traité de stylistique française. – Германия: C. Winter, 1909.
3. Jacobson R. Linguistics and Poetics: Style in Language. – The M.I.T. Press, 1964.

INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA INVESTITSION MUHITNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

**Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna, Urganch davlat universiteti mustaqil
izlanuvchisi, Ma'mun Universiteti NTM o'qituvchisi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqada iqtisodiyotda investitsiya muhitining tutgan roli, uning o'ziga xos xususiyatlari, mavjud imkoniyatlari, innovatsion yondashuvlarga asoslangan holda samarali investitsiya siyosatini amalga oshirish borasida asosida investitsion muhitni shakllantirish va shu orqali takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Investitsiya, investitsiya siyosati, investitsion muhit, investor, investitsion jozibadorlik, tahlil, loyiha.

Bugungi kunda mamlakatimiz mintaqalarida ishlab chiqarish munosabatlarini yanada yaxshilash va takomillashtirish yuzasidan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada yangi O'zbekistonda qulay investitsion muhitni shakllantirish yo'nalishlari bo'yicha aniq maqsadli va keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan Taraqqiyot strategiyasining 26-maqsadida mamlakatimiz mintaqalarida qulay investitsiya yaratish yuzasidan investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo'yicha "pastdan-yuqoriga" tamoyili asosida, yangi tizimni yo'lga qo'yish, 2026-yilgacha xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish lozimligi keltirib o'tilgan [1]. **Shunday ekan, mamlakatimizda** investitsion muhitni takomillashtirish ustuvor yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. Investitsion muhitni takomillashtirish uchun innovatsion yondashuvlar asosida mazkur sohani keng taraqqiy qildirish lozim bo'ladi. Bu esa O'zbekistonning tadbirkorlik sohasidagi qulay investitsiya muhiti sharoitida investitsiya loyihalarini chuqur tahlil qilish va investitsiyaviy jozibadorlikni yanada oshirish uchun moliyaviy rag'bat va vositalaridan samarali foydalanishni taqozo qiladi.

Har qanday investitsion muhitni shakllantirishda tijorat tuzilmasi mavjud bo'lishining asosiy maqsadi daromad olish bo'lib hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish usuli bo'lib, bu faol ravishda investitsiya kiritish bo'lib hisoblanadi. Biroq, investitsiya faqat investitsiya tahlili o'tkazilgandan keyin amalga oshirilishi lozim. Bu esa tanlangan investitsiya usulining maqsadga muvofiqligini aniqlashga imkon beradi. Bu borada mamlakat mintaqalarida samarali investitsion muhitni shakllantirish uchun chuqur investitsion tahlil amalga oshirilishi lozim. Investitsion tahlil – investitsion loyihani amalga oshirishga qaratilgan samarali biznes-rejani shakllantirish va investitsiyalarning maqsadga muvofiqligi darajasini aniqlash uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar majmuidir. Bu orqali tanlangan investitsiya usulini asoslash imkoni yaratiladi.

[Investitsiya muhitini tahlil](#) qilish jarayoni milliy iqtisodiyotning holatini o'rganishdan boshlanadi. Ushbu institutlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun mamlakatlar iqtisodiyotini tahlil qilishda xalqaro investitsiya va moliya institutlari o'rtasida tahlillar amalga oshirilishi lozim. Bu orqali investitsion muhitni baholab borish maqsadga muvofiqdir.